



O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA TURLI KO‘RINISHDAGI URF- ODAT LEKSIKASINI O‘RGANILISHIGA BIR NAZAR

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li

**Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillarida turli ko‘rinishdagi urf-odat leksikasini o‘rganilishiga doir tadqiqotlar navro‘z bayrami misolida ochib berilishi nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy urf-odat, dehqon, qiz yanga, oshiq, bektosh, shullik, geshtek, chinqo‘biz, dutor va g‘ijjak

Abstract: In this article, research on the study of the lexicon of traditions in Uzbek and Karakalpak languages in different forms is intended to be revealed on the example of Nowruz holiday.

Key words: National tradition, farmer, girl, lover, bektash, shullik, geshtek, chinqobiz, dutor and gijjak

Аннотация: В данной статье исследование по изучению лексики традиций в узбекском и каракалпакском языках в разных формах призвано раскрыть на примере праздника Навруз.

Ключевые слова: Национальная традиция, земледелец, девушка, любовник, бекташ, шулик, гештек, чинкобиз, дотор и гиджак.

Mustaqillik yillarida qoraqalpoq milliy urf-odatlarining tiklanishi bilan Navro‘zni nishonlash ham har yilgi katta bayramga aylandi. Bayramda milliy urf-odatlarining barcha qadimgi qismlari saqlangan holda o‘tkazilib kelinmoqda.



Sahnalashtirilgan bayram marosimlarida odamlarning hayotida yangi davrning boshlanishini anglatadigan diniy udumlar yorqin aks ettiriladi. Jarchilar, odatda yosh bolalar, yugurib yurib Navro‘zning kelganini xabar qiladi. Oq chopon kiygan keksa qari - Dehqon bobo bug‘doy urug‘ini sochadi. Qora uylar quriladi, ularda yoshi ulug‘ kishilar va yigit-qizlar alohida o‘tiradi. Sumalak va boshqa taomlar tayyorlash marosimi namoyish qilinadi.

Odatda, taomlarni birgalikda tayyorlab va ularni tanavvul qilib bo‘lgandan so‘ng yosh qizlar katta kelin oyisi - **qiz yangasi**” bilan sayilga chiqadi. Sayil davomida odatda katta og‘a - **yigit og‘asi** ning boshchiligidagi yigitlar guruhini uchratadi. Ular o‘rtasida gapga chechanlik musobaqasi - aytish boshlanadi. **Aytish** davomida yigit o‘ziga ma‘qul kelgan kinoyali, gapga ustalik qilib qizga o‘z tuyg‘ularini bildiradi. Bunda **qiz yangasi** va **yigit og‘asi** yordamidan ham foydalaniladi. Agar qiz gapga ustaroq bo‘lib chiqib yigitning gaplarini qaytara olsa, bu qiz ushbu yigitga rad javobini berganligini anglatadi. Bunday holatda oldinga qizning qo‘liga boshqa da‘vog‘ar chiqadi. Yutqazgan qiz ko‘p hollarda yigitning qo‘lini qabul qilishga majbur bo‘ladi. Ushbu aytishlarda ko‘p aqlli qizlar o‘zlarining yoqtirgan yigitlariga bila turib yutqazgan bo‘lishi istisno emas. Sayillar uylanmagan yigitlar va turmushga chiqmagan qizlarning arg‘imchoqlarda uchishi, gulxandan sakrashi bilan davom etadi. Bu sayr-tomoshalar qadimga borib taqaladi. Ular azob-uqubatlarni tarqatadi va hayotdagi yangi tashabbuslarga chorlaydi, yomon ko‘zlardan asraydi. Qadimda qoraqalpoqlarning sayillari bir hafta davom etgan.

Navro‘z bayrami nishonlangan kuni xalq barcha moddiy va ruhiy mavjud bo‘lgan narsalarini chiqaradi. Agar bayram tomoshalariga diqqat bilan qarasangiz sahnadagilar bizning xalq naqadar saxiy bo‘lganligini ko‘rsatishga harakat qiladi. To‘kin dasturxon, qurbon qilingan mol, ayol va erkaklarning ustidagi naqshli liboslar, moddiy va boshqa san‘at asboblarining xilma-xilligi bizning xalq ushbu sanaga qanday muhim e‘tibor berganligini anglatadi. Kattalar ham, yoshlar ham



qo‘lidan kelgunicha o‘ynaydi. Kattalar jirov va baxshilarni tinglab zavq olsa, yoshlar har xil musobaqalarni, masalan, uloq yoki ko‘kpar (otlar ustida o‘ynaladigan xavfli o‘yin), kurash, poyga, qo‘chqorlar urushi, xo‘rozlar urushi, qocharmonlarni tashkil qiladi. Yosh bolalar ham chetda qolmaydi. Ularning **oshiq, bektosh, shullik** kabi o‘yinlari juda qiziqarli o‘tadi.

Qoraqalpoq yoshlari qadimdan sayil kunlarida **geshtek** o‘tkazib kelgan. Geshteklarga yigit og‘aning boshchiligidagi bir qishloqning yigitlari qiz yangasi boshchiligidagi boshqa qishloqning qizlarini taklif qilishi mumkin bo‘lgan. Taklifni qabul qilgan qizlar shu paytlardagi eng yaxshi liboslari bilan tulimshoq (boshdagi bezak) va sakkiz tugma (ko‘krak bezaklari)larini taqib aravada yigitlar qishlog‘iga yo‘lga chiqqan. Yigitlar esa qizlarni yaxshi kutib olish uchun o‘tovlarni bezagan, qo‘y yoki ho‘kiz so‘ygan, shirinliklar olgan. Qizlarni dutor va g‘ijjak bilan ashula aytib kutib olgan. Qora uylarda yigit va qizlar bir birlariga qarama-qarshi tomonda o‘tirgan. Odatda yigit keyingi harakatlarini amalga oshirishi uchun o‘zining yoqtirgan qizining ro‘parasida o‘tirishga harakat qilgan. Ular esa quyidagilardan iborat bo‘lgan. Yigit o‘zi choy quyib kaftida ro‘parasida o‘tirgan va yoqtirgan qiziga uzatishi mumkin bo‘lgan. Agar qiz aytishdagidek, bu yigitni yoqtirmasa, u choyni olmasligi ham mumkin. Agar qiz piyolani olib, lekin o‘zi choyni ichmay uni boshqa qizlarga quyib bersa, bu ham u qizning yigitni yoqtirmaganligini anglatgan. Bunday hollarda o‘ziga jalb qiladigan harakatlarni ishlatgan. Masalan, **yigit to‘lib turgan bir choynak choyni, unga pul yoki qanday bir shirinlik bog‘lab** bergan. Buning hammasi albatta hazil, she‘r, ashula va boshqa romantik vositalar bilan kuzatilgan. Qizni qiz yangasi orqali ham o‘ziga qaratmoq mumkin, buning uchun qiz yangasiga sovg‘a berishi kerak. Xuddi shu tarzda qizlar ham choy quyib va uni yigitga uzatib o‘ziga yigit tanlash huquqiga ega bo‘lgan. Agar yigit choydan ichib piyolaning ichiga novvot solib qaytarib bersa, yaqinda to‘y deb tushinilgan.

Ziyofatlarda, shuningdek yigit va qizlarning aqli va so‘zamolligi sinaladi. Hayotda javobini topish mumkin bo‘lmagan topishmoqlar, turmushdan olingan



o'tkir savollar beriladi, tez aytishlar aytiladi. Keyin yigitlar dutor chaladi va ashula ijro etadi. Qizlar og'iz bilan chalinadigan musiqiy asbob - chinqo'bizda navo kuylagan.

Bunday chiroyli urf-odatlar qoraqalpoq xalqi madaniyatining o'ziga xosligidan dalolat. Ularning hozirgi kungacha saqlanishi - ajdodlar merosiga sadoqat belgisi. Yorqin va an'anaviy urf-odatlariga, marosimlarga, rivoyat va o'yinlarga boy hamda qayta tiklangan va yangi ta'sirlar bilan boyitilgan Navro'z bayrami qoraqalpoq xalqining boy hayotiy tajribasi namoyishi bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", ikkinchi qism, davlat ilmiy nashriyoti 2018.
2. Mahmud Sattor, O'zbek udumlari. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 1993.
3. Mamatqul Jo'rayev, Darmonoy O'rayeva, O'zbek mifologiyasi. Toshkent "Excellent pygrophy" nashriyoti 2020.
4. Чилла ва у билан боглик расм-русумлар ва урф-одатлар тУгрисида батафсилрок каранг; О.Бурнее. Чилла нима/Сoadат 1993 (А.Аshirov. "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari 79. Bet)
5. Назаров Н. Лакайлар этнографияси.-Т..2007.-Б.8 8. Жураев М. Соч магияси билан боглик; маросимлар //Узбекистон этнологияси. Янгача карашлар ва назарий методологик ёндашувлар. Тошкент. 2004